

EFFECTIVENESS AND PRACTICAL CHALLENGES OF MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN ENHANCING MEDIA LITERACY

Maftuna Hamza qizi MAHMUDOVA

Lecturer at the Department of Information Service and Public Relations

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Uzbek State University of World Languages

Tashkent, Uzbekistan

MEDIASAVODXONLIKNI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI VA AMALIY MUAMMOLARI

Maftuna Hamza qizi MAHMUDOVA

Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar kafedrasida o'qituvchisi,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ МЕДИАГРАМОТНОСТИ

Мафтуна Хамза кизи МАХМУДОВА

Преподаватель кафедры информационной службы и связей с общественностью,

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Узбекский государственный университет мировых языков,

Ташкент, Узбекистан

Orcid: 0009000734630747

maftunamakhmudova880@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Mahmudova M.H. Mediasavodxonlikni oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining samaradorligi va amaliy muammolari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 5. — B. 201-215.

<https://doi.org/10.36078/1762334254>

Received: August 27, 2025

Accepted: October 17, 2025

Published: October 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Abstract. This article analyzes the importance and effectiveness of media literacy educational technologies in the learning process. In the modern digital information environment, students need to develop critical skills to identify and analyze reliable information sources.. Media literacy equips students with the ability to critically evaluate and use information effectively. The article explores the role of innovative technologies in fostering media literacy in modern educational settings, including interactive teaching methods, online platforms, and multimedia tools. These technologies create an engaging and supportive learning environment that fosters students' self-directed learning. Through interactive lessons, forums, and online events, students gain opportunities to express and discuss their ideas, which enhances their analytical thinking skills. Additionally, the article examines the role of media literacy in educating the younger generation, along with its social, cultural, and economic aspects. Media literacy not only contributes to individual development but also positively impacts society by enabling data-driven decision-making. For instance, students utilize media literacy skills when analyzing social issues and proposing solutions, as well as when articulating their opinions. Consequently, the article offers



Open Access

modern approaches and strategies to enhance the effectiveness of educational technologies. It recommends organizing specialized courses and training for teachers to instruct media literacy, as well as incorporating media literacy modules into educational programs. It emphasizes the necessity for educational institutions and policymakers to develop strategic plans for advancing media literacy. The article provides practical recommendations for educators and policymakers to enhance the quality of education through the effective integration of media literacy educational technologies.

Keywords: media literacy; educational technologies; innovative methods; interactive teaching; information sources; students' skills; analytical thinking; improving the quality of education.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mediasavodxonlik ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati va samaradorligi batafsil tahlil qilinadi. Bugungi kunda global axborot muhitining tez o'zgarishi, talabalarni to'g'ri ma'lumotni ajratish va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishga majbur qiladi. Mediasavodxonlik, o'z navbatida, talabalarni axborot manbalarini tanlash va ulardan samarali foydalanishga o'rgatadi. Maqolada zamonaviy ta'lim muhitida mediasavodxonlikni rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalar, jumladan, interaktiv o'quv metodlari, onlayn platformalar va multimedia vositalarining roli ko'rib chiqiladi. Ushbu texnologiyalar talabalar uchun qiziqarli va motivatsion muhit yaratadi, shuningdek, o'z-o'zini o'rganishga rag'batlantiradi. Interaktiv darslar, forumlar va onlayn tadbirlar orqali talabalar o'z fikrlarini ifoda etish va muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, maqolada mediasavodxonlikning yosh avlodni tarbiyalashdagi roli, uning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jihatlarini tahlil qilinadi. Mediasavodxonlik nafaqat individual rivojlanishga, balki jamiyatda ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, talabalar ijtimoiy muammolarni tahlil qilish va ularga yechimlar taklif etishda, o'z fikrlarini ifoda etishda mediasavodxonlik ko'nikmalaridan foydalanadilar. Natijada maqolada ta'lim texnologiyalarining samaradorligini oshirish uchun zamonaviy yondashuvlar va strategiyalar taklif etiladi. O'qituvchilarga mediasavodxonlikni o'rgatish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etish, ta'lim dasturlariga mediasavodxonlik modullarini qo'shish tavsiya etiladi. Shuningdek, ta'lim muassasalari va siyosatchilar uchun mediasavodxonlikni rivojlantirish bo'yicha strategik reja ishlab chiqish zarurligi ta'kidlanadi. Maqola o'qituvchilar, ta'lim muassasalari va siyosatchilar uchun muhim tavsiyalar bilan to'ldirilgan bo'lib, mediasavodxonlik ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mediasavodxonlik; ta'lim texnologiyalari; innovatsion metodlar; interaktiv o'qitish; axborot manbalari; talabalar ko'nikmalari; tahliliy fikrlash; ta'lim sifatini oshirish.

Аннотация. Статья анализирует важность и эффективность образовательных технологий медиаграмотности в учебном процессе. В условиях быстро меняющейся глобальной информационной среды студентам необходимо развивать навыки для оценки и анализа достоверных источников информации. Медиаграмотность, в свою очередь, учит студентов выбирать и эффективно использовать информационные ресурсы. В статье рассматривается роль инновационных технологий в содействии развитию

медиаграмотности в современных образовательных учреждениях, включая интерактивные методы обучения, онлайн-платформы и мультимедийные инструменты. Эти технологии создают увлекательную и мотивирующую среду для студентов, способствуя самостоятельному обучению. Через интерактивные уроки, форумы и онлайн-мероприятия студенты получают возможности для выражения и обсуждения своих идей, что способствует развитию их аналитического мышления. Кроме того, в статье рассматривается роль медиаграмотности в обучении младшего поколения, а также ее социальные, культурные и экономические аспекты. Медиаграмотность не только способствует индивидуальному развитию, но и положительно влияет на общество, позволяя принимать решения на основе данных. В результате в статье предлагаются современные подходы и стратегии для повышения эффективности образовательных технологий. Рекомендуется организовать специализированные курсы и тренинги для преподавателей по медиаграмотности, а также интегрировать модули медиаграмотности в образовательные программы. Подчеркивается необходимость разработки стратегических планов для продвижения медиаграмотности образовательными учреждениями и политиками. Статья обогащена значительными рекомендациями для преподавателей, образовательных учреждений и политиков, направленными на улучшение качества образования через эффективное применение образовательных технологий медиаграмотности.

Ключевые слова: медиаграмотность; образовательные технологии; инновационные методы; интерактивное обучение; информационные источники; навыки студентов; аналитическое мышление; улучшение качества образования.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimi jadal o'zgarishlar va yangi talablar bilan to'la bo'lib, talabalar va o'qituvchilar uchun qiyinchiliklar va imkoniyatlar yaratmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga, mediasavodxonlik ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mediasavodxonlik, talabalarni axborot manbalarini tanlash, tahlil qilish va ulardan samarali foydalanishga o'rgatadigan ko'nikmalardir. Bu ko'nikmalar nafaqat talabalarni bilim bilan ta'minlaydi, balki ularning tahliliy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va boshqa onlayn platformalar orqali tarqatilayotgan axborotning ko'pligi, talabalarni ishonchli va noaniq ma'lumotlarni ajratish qobiliyatiga ega bo'lishga majbur qiladi. Masalan, [Cluskey 2019] o'z ishlarida, mediasavodxonlik ta'limining zamonaviy ta'lim jarayonidagi roli va ahamiyatini ta'kidlaydi, bu esa yosh avlodning axborotga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga yordam beradi.

Mediasavodxonlik ta'lim texnologiyalari orqali o'rgatilishi, talabalarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hujjatlarda [Mihailova 2020: 123] ko'rsatilishicha, interaktiv metodlar va multimedia vositalari orqali o'qitish, talabalarni o'z fikrlarini mustaqil ifoda etishga va axborotlarni tahlil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu maqolada mediasavodxonlik ta'lim texnologiyalarining

samaradorligi, interaktiv metodlar va multimedia vositalari orqali rivojlanishi hamda ta'lim sifatini oshirishdagi roli tahlil qilinadi.

Mediasavodxonlik nafaqat individual rivojlanish uchun zarur, balki jamiyatda ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishni ham qo'llab-quvvatlaydi. [Barlow 2021: 220] o'z tadqiqotida mediabozorning rivojlanishi va mediasavodxonlikning ijtimoiy o'zgarishlarga ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ta'lim muassasalari va o'qituvchilar mediasavodxonlikni rivojlantirish uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqishlari lozim.

Tadqiqot metodlari

Mazkur tadqiqotni tizimli olib borishda jurnalistika fanining asosiy tadqiqot usullari — tarixiy-qiyosiy, strukturaviy-tahliliy va diskursiv metodlardan foydalanildi. Qiyosiy metod orqali mediasavodxonlik konsepsiyasining turli davlatlardagi rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi. Bu metod barcha narsalar faqat qiyoslash orqali anglash mumkinligi tamoyiliga asoslanadi.

Maqolada mediasavodxonlik axborot xavfsizligini ta'minlashda instrumental vosita sifatida o'rganildi va mavjud nazariy tamoyillar qiyosiy tahlil asosida ochib berildi. Strukturaviy-tahliliy metod yordamida mediasavodxonlikning demokratik jamiyatlardagi o'rni va uning ijtimoiy amaliyotda qo'llanilishi alohida tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali umumiy xulosalar va yechimlarga kelindi.

Mediasavodxonlik va ta'lim texnologiyalari bo'yicha mavjud ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda tadqiqotlar sistematik-tasnifiy tahlil metodi orqali o'rganildi. Bu orqali "mediasavodxonlik" tushunchasining nazariy talqinlari aniqlanib, rivojlanish tendensiyalari tavsiflandi.

Turli manbalardagi fikrlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida xorij tajribasida mediasavodxonlikning ta'lim muassasalarida yoshlarning axborot xavfsizligini oshirishdagi roli hamda pedagogik yondashuvlari o'rganildi. Kuzatuv metodi yordamida esa O'zbekiston ta'lim tizimida mediasavodxonlikni fan sifatida shakllantirish jarayonidagi mavjud muammo va kamchiliklar aniqlab berildi.

Natijalar

Bugun global media maydonda kuzatilayotgan axborot tengsizligi, turli mamlakat va mintaqalar o'rtasida sodir bo'layotgan uzluksiz axborot xuruji, qarama-qarshilik, mafkuraviy to'qnashuvlar avj olayotgan davrda har bir inson uchun mediasavodxonlik muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida media sohasini tizimli isloh qilish, axborot yetkazish samaradorligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. So'nggi yillarda keng ko'lamli demokratik islohotlar, axborot globallashuvi jarayoniga mos ravishda mamlakatimizda mediasavodxonlikni shakllantirish, ayniqsa, buni oliy ta'lim tashkilotlari talabalariga o'quv dasturlari orqali yetkazish va targ'ib qilishga katta e'tibor berilmoqda.

Hozirgi kunda jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini, shu jumladan ta'limning rivojlanishini mediasiz tasavvur qilish qiyin. Axborot

makonining globallashuvi va uning ochiqqligi zaminida yangi bilimlar, qarashlar, faktlar, konsepsiyalarning oqimi shiddat bilan ortib bormoqda va medialar orqali tarqalayotgan axborotlardan foydalanish muammosi paydo bo'lmoqda. Ushbu jarayonlar bevosita ta'lim jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Inson medialar bilan ishlashi jarayonida ziddiyatli axborotga duch keladi. Bunday holatlarda foydalanuvchi turli manbalardan axborotni izlash ko'nikmasini shakllantirish va buni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi kunda yoshlar, xususan, oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarda media bilan ishlash jarayonlarini shakllantirish zarur. Bu esa yangi axborotlarni mavjud bilimlar asosida baholash hamda tegishli nuqtayi nazarni shakllantirishga zamin yaratadi.

Bugun media olamida yangi telekanallar, davriy nashrlar, internet saytlarining ko'payishi davom etmoqda. Ommaviy axborot vositalari ma'lumotlarni tanlab oluvchi, tuzuvchi va sharhlovchi filtr vazifasini o'taydi. Shu bilan birga, ta'lim-tarbiyaviy, ma'rifiy vazifalarni o'z zimmasiga oladi, yosh avlod uchun o'ziga xos "parallel maktab" hisoblanadi. Inson, bir qarashda, juda oson boshqaradigan ma'lumotlarning ko'rinib turgan soddaligi va foydalanish imkoniyatiga qaramay, ba'zida buni sezmasdan, u axborot olamining ta'sir obyektiga aylanadi.

Bu borada Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev "Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi globallashuv davri o'ta shiddat bilan o'zgarayotgani va turli tahdidlar ko'pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo'lmaydigan g'oyat murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Axborot-kommunikatsiya tizimlarining keng qo'llanishi, davlat boshqaruvining elektron shaklda tashkil etilayotgani, bu yaxshi, albatta, o'z navbatida, axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rishni hayotning o'zi taqozo etmoqda" [Mirziyoyev 2019: 45] degan edi. Darhaqiqat, bugungi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media orqali kirib keladigan mafkuraviy tahdidlarni o'z vaqtida payqash va ularni oldini olish davr talabi hisoblanadi.

G. V. Grashev va I. K. Melnikning ta'kidlashicha, axborot ta'sirining asosiy va markaziy maqsadi inson va uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishdir. Shuningdek, axborotning ta'siri jamiyatning turli ijtimoiy guruhlar, kichik jamoalardan tortib, davlat va butun jamiyat aholisining faoliyatiga ham ta'sir etadi. Bunda alohida shaxslarning munosabatlari hal qiluvchi rol o'ynaydi [Grashev, Melnik 2003: 8].

Zamonaviy sharoitda internet va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan axborotlar ong sanoatining mahsulotiga aylanmoqda. Biroq bunday axborotlar har doim to'liq va ishonchli bo'lavermaydi. Ayrim ma'lumotlarning bir tomonlama yoki buzib ko'rsatilishi e'tiborga olinishi lozim. Bu esa, ayniqsa, mediata'limning ahamiyatini oshiradi. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun har bir axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va xabarlardagi yashirin ma'nolarni tushunish qobiliyatini shakllantirish zarurati yuqori darajada dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Axborotlarning betartib tarqalishi oliy ta'lim muassasalari talabalari oldida mustaqil tafakkur qilish, qarash va qadriyatlarni shakllantirish muammosini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, talabalarning axborot olamini tartibga solish yo'llarini izlashga, axborot bilan ishlashning yangi usul va ko'nikmalarini ishlab chiqishga ehtiyoj seziladi. Bugungi jamiyatda axborotlarning mazmuni va ularning medialar orqali tarqatilish usullarini nazorat qilish tobora murakkablashib bormoqda. Xususan, yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, ularning ongini zararli axborotlar ta'siridan asrash uchun mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli yosh avlod vakillarida media va axborot savodxonligi kompetentligini shakllantirish pedagoglarning asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy jamiyat rivojida media olamining ta'siri tobora ortib borayotgani kuzatilmoqda. Insonlar medialar orqali atrof-muhitni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglash va baholash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Tadqiqotchilar zamonaviy medialarning asosiy jihatlaridan biri sifatida kreativlik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va innovatsiyalarni alohida ta'kidlamoqda. Media esa keng auditoriyaga mo'ljallangan, yangiliklar, axborot va reklama materiallarini tarqatishga qaratilgan kommunikatsiya vositasi bo'lib, turli xil funksiyalarni bajaradi. Mediasavodxonlik bo'lsa axborotni egallash, uni baholash va axloqiy me'yorlarga amal qilgan holda undan foydalanish muhimligini anglatadi. Bu tushuncha media funksiyalarini tushunish, ularning sifatini baholash, shaxsiy ifoda erkinligini rivojlantirish hamda ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish imkonini beradi. Mediasavodxonlik, shuningdek, axborot makonida qo'llanilayotgan texnologiyalar va kommunikatsiya vositalaridan foydalanuvchilarning ongli va ratsional hamkorlik qilish ko'nikmalarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Mediasavodxon inson mediamatnlarga tanqidiy va tahliliy yondashish, ommaviy madaniyat kabi mafkuraviy tahdidlarga qarshi masofani saqlash hamda manipulyatsiyalarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim [Duncan 1989: 232].

Mediasavodxonlik zamonaviy jamiyatda tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan tushunchalardan biri bo'lib, u ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Masalan, ba'zi olimlar mediasavodxonlikni "mediamatnlarni sharhlash, tahlil etish va yaratish qobiliyati" sifatida tushuntirgan bo'lsalar [Worsnop 1994: 179], boshqalari esa uni "turli shakllardagi axborotlarni olish, tahlil etish, baholash va uzatish qobiliyati" deb izohlaydilar [Kubey 1997: 2]. Shu bilan birga, mediasavodxonlikni medianing ijtimoiy-madaniy va siyosiy kontekstini tushunish, mediamatnlarni idrok etish, yaratish, tahlil etish va baholash jarayoni sifatida ko'rish mumkin.

Mediasavodxonlikning ahamiyati shundaki, u insonlarga jamiyatdagi axborot oqimidan samarali foydalanish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, turli manipulyativ usullarga qarshi immunitet hosil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, yoshlar uchun bu jarayon muhim bo'lib, ular mediasavodxonlik orqali mustaqil qaror qabul qilish, axborotni tahlil qilish va undan foydali maqsadlarda foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradilar [Duncan 1989: 232].

Oliy ta'lim muassasalarida mediasavodxonlik sohasi bo'yicha ta'lim berish muhim masalalardan biridir. Ushbu jarayonda axborot xavfsizligi,

ijtimoiy-axloqiy, madaniy hamda texnologik jihatlar bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni o'rgatish zarur. Talabalar mediasavodxonlik orqali nafaqat mediadan samarali va xavfsiz foydalanish, balki ijtimoiy hayotdagi dolzarb masalalarga kasbiy yondashish va mustaqil fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, ular fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga hissa qo'shish ko'nikmalariga ega bo'lishadi [Kuzmin, Parshakova 2013: 123].

Mediasavodxonlikka tegishli muhim tushunchalardan biri netiket (raqamli etiket) bo'lib, u internetdan foydalanishda odob qoidalariga rioya qilishni anglatadi. Bugungi kunda raqamli etiket axborot muhitida savodli ishtirok etishning majburiy talabi hisoblanadi [Aufderheide, Firestone 1993: 1]. G'arb mediasavodxonlikni keng qamrovli jarayon sifatida talqin etadi. Ularning fikricha, mediasavodxonlik o'quvchilarga media bilan muloqot qilish, uning mazmunini tanqidiy baholash va manipulyatsiyaga qarshi turish imkonini beradigan jarayondir [Duncan 1989: 232]. Shu sababli mediasavodxonlik nafaqat shaxsiy, balki jamiyat miqyosidagi dolzarb muammolarni hal qilishga xizmat qiladigan muhim bilim sohasidir.

Mediasavodxonlik tushunchasi shundan iboratki, inson kerakli ma'lumotni topgach, uni nafaqat qabul qiladi, balki uni tushunishga harakat qiladi. Yuqoridagi ta'riflarda *“tahlil”*, *“interpretatsiya”*, *“dekodlash”* va boshqa atamalar mediasavodxonlikning yordamchi qismlari sifatida baholash mumkin. Bizningcha, u qanday ifodalanganidan qat'i nazar, mohiyatan ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyatidan boshqa narsa emas. Bularning barchasiga qo'shimcha ravishda, u ko'pincha ko'nikmalardan tashqari ko'plab boshqa omillar masalan, bilimlar jamlanmasi, turli xil xatti-harakatlar va motivatsiyalardan iborat bo'lishi tavsiflanadi [Jim Potter 2022].

Mediasavodxonlik o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- estetik va kreativ ko'nikmalar mediakontentni ijodiy jihatdan anglash, yaratish va talqin etish qobiliyatini bildiradi. Mediakontentni yaratish orqali o'quvchi mazkur ko'nikmalarni o'zida shakllantirishi mumkin;
- interfaollik ko'nikmalari media orqali muloqot qilish va turli media-rollarni bajarib ko'rish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Mazkur ko'nikmalarni ta'lim va amaliyot doirasida rivojlantirish mumkin. Interfaollik ko'nikmalari o'z fikri va qarashlarini ifoda etishga tayyorligini ko'rsatadi;
- tanqidiy tahlil ko'nikmalari turli tahliliy vositalardan foydalangan holda turfa xil mediakontentni talqin qila olish va ahamiyatini tushunishni bildiradi. Ushbu ko'nikmalar rang-barang mediakontent va janrlarni o'rganish orqali yaxshiroq rivojlanadi;
- xavfsizlik ko'nikmalari murakkab vaziyatlardan chiqish va ularning oldini olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Virtual makondan xavfsiz foydalanish, shaxsiy makonni himoya qilish hamda zararli kontent va muloqotdan voz kechishni nazarda tutadi [McLuhan 1967: 33].

Media va axborot borasida savodxon insonlar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

- media orqali taqdim etilayotgan axborot shakllarining ta'sirini yaxshi tushunish;
- o'ylangan va mustaqil qarorlar qabul qilish;
- atrof-muhit haqida yangi ma'lumot olish;
- umumiylik hissining shakllanishiga ko'maklashish;
- jamoaviy diskursni qo'llab-quvvatlash;
- hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish;
- axborotni yaratish;
- tanqidiy fikrlash;
- mediadan o'zini namoyon qilish va ijodiy maqsadlarda foydalanish;
- mediadan o'z xavfsizligini ta'minlagan va ijtimoiy ma'suliyatni his qilgan holda foydalanish;
- demokratik jamiyat hayotida va global axborot tarmog'ida faol ishtirok etish.

Mediasavodxonlik quyidagi xususiyatlarni qamrab oladi:

a) media ma'lumotlar insonlarga qanday ta'sir qilishini tushunish (masalan, manipulyatsiya texnologiyalari, giyohvand moddalar va xavfli turmush tarzi haqidagi nashrlardan o'zini-o'zi himoya qilish ko'nikmalarini axborot saralash kompetensiyalarini rivojlantirish orqali);

b) tanqidiy fikrlashni rivojlantirish (ya'ni media ma'lumotlar o'z nuqtayi nazarida tijorat manfaatlariga ega bo'lgan yirik korporatsiya egalari tomonidan yaratilganligini tushunish va ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi darajasini baholash) [Lin 2014: 165].

Mediasavodxonlikning mazmuni va tuzilishini aniqlashda rus psixologlari quyidagi tarkibiy qismlarga ajratishni tavsiya qiladi:

1. *Motivatsion tarkibiy qism* — bu imkoniyatni ko'rsatishga tayyorgarlik [Chicherina 2008: 81]. Motivatsion komponent, birinchi navbatda, o'quvchilarning zamonaviy ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi va har bir shaxsning mustaqil fikrini anglashi asosida shakllanadi; ikkinchidan, zamonaviy media-madaniyat kontekstida o'quvchilarning o'zi haqida yaxlit tushunchalarni shakllantirish asosida; uchinchidan, o'z kommunikativ ehtiyojlarini tushunish asosida media matnlari tahlil qilish imkoniyatlari.

2. *Kognitiv tarkibiy qism* — bu kompetensiya mazmunini bilish (axborot savodxonligi layoqatini anglash) [Aufderheide 1997: 79]. Mediasavodxonlikning kognitiv tarkibiy qismi quyidagi tushunchalarni o'z ichiga olamiz: *jarayon, kontekst, media matn va media taqdimot*:

2.1. *"Jarayon"* tushunchasi quyidagi masalalar bo'yicha bilimlarni egallashni o'z ichiga oladi: zamonaviy dunyoda ommaviy axborot vositalarining roli va vazifalari; turli ommaviy axborot vositalarining o'ziga xos xususiyatlari va ularning kommunikativ strategiyalari; ommaviy axborot vositalari iqtisodiyoti, media matn yaratish jarayoni (maqsadlar, auditoriya hamda ular bilan muloqot qilish usullari va unga ta'sir qilish); ommaviy axborot vositalarining ta'siri singari tushunchalarni qamrab oladi.

2.2. *"Kontekst"* tushunchasi quyidagi masalalar bo'yicha bilimlarni egallashni o'z ichiga oladi: ommaviy axborot vositalarini yaratilishi va faoliyatini anglashning tarixiy va madaniy kontekstlari; zamonaviy

mediamakonda media madaniyat muhiti; ommaviy axborot vositalari va mafkura; ommaviy axborot vositalari va *identifikatsiyani* shakllantirish.

2.3. “*Media matn*” tushunchasi quyidagi masalalar bo'yicha bilimlarni egallashni o'z ichiga oladi: media matn turi va janri; media matn mavzusi; media matn muallifi va auditoriyasi; matn tarkibi; vizual, grafik, multimedia vositalari va ma'no-mazmunni yetkazish usullari; aniq va yashirin tarkib; *intertekstual aloqalar*; stereotipik vakilliklarning mavjudligi yoki yo'qligi; auditoriya bilan o'zaro munosabatlarning tabiati.

2.4. “*Media taqdimot*” tushunchasi quyidagi masalalar bo'yicha bilimlarni egallashni o'z ichiga oladi: media matnining haqiqiy hayotga munosabati (realizm va konstruktivizm obyektiv haqiqatni ifodalash usullari sifatida); muallifning pozitsiyasi (obyektivlik, birlamchi g'oyani ifoda etish va aks ettirish, madaniy qadriyatlar tizimi, dunyoqarash, jurnalistik etika); ommaviy axborot matnlarida stereotiplash, muayyan ijtimoiy jamiyat a'zolarining toifalari va guruhlar; ommaviy axborot vositalari va tajovuzkorlik muammosi; ommaviy axborot vositalari va axborot iste'moli madaniyati singari masalalarni qamrab oladi. Bu, o'z navbatida, kognitiv tarkibiy qismni namoyon qiladi.

3. *Xulq-atvor komponenti* turli xil vaziyatlarda media matnlarini auditoriyaga ta'sirni ta'minlaydigan ko'nikmalar to'plamidir [Hobbs 1998: 16].

Mediasavodxonlikning xulq-atvor tarkibiy qismi quyidagi asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi:

— *turli media-manbalarida ma'lumot qidirish qobiliyati*: lokalizatsiya qilish, ya'ni aniqlash harakatlarni bajarish media-ma'lumot manbasiga kirishni amalga oshirish; media-ma'lumotni saqlash; turli xil media-matnlarda, shu jumladan, texnik vositalardan foydalangan holda kerakli ma'lumotlarni topish;

— *media matnni tahlil qilish qobiliyati*: mavzu, axborot turi (ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy), janr, maqsadli auditoriyani aniqlash; muallifning kommunikativ maqsadi; media matnining asosiy funksiyalarini aniqlash; asosiy masalalarni ajratib ko'rsatish, aniq va yashirin tarkibni tahlil qilish; matnning tarkibiy tuzilishini aniqlash; media matnida yangilangan ijtimoiy-madaniy tushunchalarni ajratib ko'rsatish va tahlil qilish;

— *media matn mazmunini tanqidiy baholash qobiliyati*: media matn mazmunini shaxsiy tajriba yondashuvi, munosabatlar, dunyoqarash, olingan bilimlar asosida talqin qilish; ijtimoiy va madaniy kontekstlarni tahlil qilish asosida, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar, keyingi voqealar yoki taqdim etilgan vaziyatning mantiqiy yakunlanishi haqida taxminlar yaratish; ijtimoiy kontekstni tahlil qilish asosida ommaviy axborot vositalarining ahamiyatini baholash;

— *yangi media-matnni yaratishda axborotni ijodiy samarali transkodlash qobiliyatlari*: ommaviy axborot vositalarining auditoriyasini, matndagi mantiqiy zanjir, auditoriyani e'tiborini jalb qilish lozim.

Yuqoridagi fikrlarga tayanadigan bo'lsak, mediasavodxonlik shaxsning axborot saralash qobiliyati hisoblanadi. Ushbu layoqatni shakllantirish ta'lim jarayonida amalga oshirilib, bosqichma-bosqich takomillashib boradi. Natijada ushbu ko'nikmaga ega bo'lgan har qanday individ axborot olamiga tanqidiy tafakkur nuqtayi nazaridan qaraydi.

Bugungi kunda mediasavodxonlik jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Informatsion texnologiyalarning rivojlanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi axborot oqimini keskin oshirdi. Bu jarayonda aholining mediasavodxonligini oshirish muhim vazifaga aylangan. Xorij mamlakatlari mediasavodxonlikka oid turli yondashuv va metodlarni qo'llagan bo'lib, ularning tajribasini o'rganish muhimdir. Mazkur maqolada mediasavodxonlik bo'yicha xorijiy tajriba, uning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi hamda statistik ma'lumotlar keltiriladi. Mediasavodxonlik axborotni tahlil qilish, uni to'g'ri talqin qilish va soxta axborotni aniqlash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bu qobiliyat turli davlatlarda axborot makonida faol ishtirok etishga imkon beradi. Xorijiy mamlakatlarda mediasavodxonlik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Masalan, AQSh, Kanada, Shvetsiya va Finlyandiya kabi mamlakatlarda bu soha yuzasidan keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmoqda.

AQSh mediasavodxonlik bo'yicha eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. 1990-yillardan boshlab, bu yerda mediasavodxonlik ta'lim dasturlarining tarkibiy qismiga aylangan. AQShning "Media Literacy Now" kabi nodavlat tashkilotlari mediasavodxonlikni keng joriy etishga ko'maklashmoqda. 2022-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, AQShdagi maktablarning 70 foizdan ko'prog'ida mediasavodxonlik dasturlari o'rgatilmoqda. Bu ta'lim orqali talabalar axborotni tanqidiy tahlil qilish va uni to'g'ri talqin qilish ko'nikmalarini rivojlantirishadi [Barlow 2021: 220].

Skandinaviya mamlakatlari, xususan, Finlyandiya va Shvetsiyada mediasavodxonlik davlat ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Finlyandiyada bu yo'nalishdagi faoliyatning asosiy maqsadi jamiyatda demokratiyani mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir. PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlariga ko'ra, Finlyandiya maktab talabalari global miqyosda eng yuqori savodxonlik ko'rsatkichlariga ega. Bu esa mediasavodxonlikning davlat siyosati darajasida joriy etilishi natijasidir [Smith 2020: 185].

Kanadada mediasavodxonlikni oshirish bo'yicha "MediaSmarts" tashkiloti tomonidan keng ko'lamli dasturlar amalga oshiriladi. Bu dastur talabalarga internet va ijtimoiy tarmoqlarda axborotni qanday tahlil qilishni o'rgatadi. Mamlakat maktablarida mediasavodxonlik darslari majburiy o'quv dasturlariga kiritilgan bo'lib, ushbu dasturlar yordamida soxta axborot tarqalishining oldini olishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqilgan [Johnson 2019: 205].

Buyuk Britaniyada mediasavodxonlik ta'lim tizimining bir qismiga aylangan. Talabalarga axborotni tanqidiy o'rganish, soxta yangiliklarni farqlash va ommaviy axborot vositalarida ko'rilgan ma'lumotlarni tahlil qilish o'rgatiladi. BBC singari katta OAV ham bu borada faol rol o'ynab, maxsus ta'lim resurslari yaratadi va jamiyatda mediasavodxonlik madaniyatini targ'ib qiladi [Doe 2022: 190].

Avstraliya mediasavodxonlik sohasida faoliyat olib boruvchi yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda mediasavodxonlik maktab dasturlariga kiritilgan va davlat miqyosida amalga oshirilgan tashabbuslar bilan hamkorlikda rivojlanadi. Mediasavodxonlik orqali

yoshlar va kattalarga ijtimoiy tarmoqlarni qanday xavfsiz va samarali foydalanishni o'rgatish Avstraliya jamiyatining dolzarb vazifalaridan biri [Miller 2018: 175].

Germaniyada mediasavodxonlik davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mamlakatda mediasavodxonlik bo'yicha maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilib, fuqarolarning axborotni tanqidiy tahlil qilish malakalari oshiriladi. Mamlakatdagi asosiy vazifa — internetda soxta axborot tarqalishini kamaytirish va jamiyatda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish [Schneider 2020: 160].

Estoniya raqamli texnologiyalar va mediasavodxonlik sohasida dunyoda ilg'or davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat talabalari uchun mediasavodxonlik darslari raqamli savodxonlik bilan birga o'qitiladi. Estoniyada mediasavodxonlik mamlakatning raqamli rivojlanish strategiyasining muhim qismi sifatida qaraladi [Karlsen 2019: 210].

Ko'plab mamlakatlarda mediasavodxonlik maktab dasturlariga kiritilgan. Masalan, Kanada va Buyuk Britaniyada mediasavodxonlik bolalar uchun majburiy fanlardan biridir. Bu orqali bolalar yoshligidan axborotni tanqidiy qabul qilishga o'rgatiladi. Kanadada "MediaSmarts" tashkiloti bu borada keng ko'lamli tadqiqotlar va ta'lim dasturlari ishlab chiqadi. Shu kabi yondashuv Britaniyada ham mavjud bo'lib, u yerda talabalarga axborot tahlil qilish metodikasi o'rgatiladi.

Xorijiy tajribaga murojaat qilsak, OAV ham mediasavodxonlikni oshirish jarayonida faol ishtirok etmoqda. Britaniyaning BBC kanali mediasavodxonlik bo'yicha maxsus ta'lim dasturlari tayyorlab, ularni televidenie va onlayn platformalarda taqdim etmoqda. AQShda esa ommaviy axborot vositalarining soxta yangiliklarga qarshi kurashishda media savodxonlikni oshirish bo'yicha ko'makchi sifatida faoliyati alohida e'tiborga loyiqdir. Mediasavodxonlikni oshirish bo'yicha ko'plab tashabbuslarga qaramasdan, ushbu sohada dolzarb muammolar ham mavjud. Eng katta muammolardan biri — internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaladigan soxta yangiliklar hajmining oshib borishidir. Pew Research Center tomonidan 2021-yilda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, amerikaliklarning 64 foizi ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan ma'lumotlarni ishonchsiz deb biladi (<https://www.pewresearch.org/internet/2021/04/07/social-media-use-in-2021/>). Bunday sharoitda mediasavodxonlikning rivojlanishi juda muhimdir, ammo axborot manbalarining ko'pligi odamlarni chalkashtiradi.

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilsak, mediasavodxonlikning kelajagi shunchaki axborotni to'g'ri talqin qilish bilan cheklanmasligi kerak. Buning o'rniga, yangi texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt va raqamli vositalardan foydalangan holda axborotni tezkor tahlil qilish usullarini rivojlantirish lozim. Bundan tashqari, global hamkorlikni mustahkamlash orqali mediasavodxonlikning xalqaro standartlarini ishlab chiqish ham muhim vazifalardan biridir. Shu bilan birga, ta'lim tizimlarida mediasavodxonlikni kengroq qamrab olgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Munozara

Hozirgi zamonda Internet insonlar yashash tarzining muhim omiliga aylanib qoldiki, u ko'pchilik uchun asosiy yoki hatto yagona ma'lumot manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mish-mishlarni tarqatish kabi eski dezinformatsiya usuli axborot makonida yangi ko'rinishiga ega bo'ldi. Ushbu hodisaning o'ziga xos xususiyati shundaki, mish-mishlar ommaning ichida keng tarqalgan va muhokamaga sabab bo'layotgan norasmiy ma'lumotlardir. Norasmiy muloqot jarayonida olingan ma'lumot, ommaviy axborot vositalari uzatayotgan xabardan tubdan farq qiladi. Chunki og'zaki shaklda berilgan ma'lumotni idrok etish va eslab qolish oson. Mish-mishning yana bir xususiyati shundaki, u odatda ommaviy axborot vositalari uzatayotgan ma'lumotdan ko'ra tomoshabinlarga tezroq yetib boradi. Katta yoshdagi foydalanuvchilar jamoasi orqali ma'lumotni tezda tarqatish potentsiali ijtimoiy media platformalarining eng qimmatli xususiyatlaridan biridir. Ijtimoiy tarmoqlar hamma uchun ochiq bo'lib, nafaqat axborot tashkilotlari jurnalistlarga, balki oddiy fuqarolarga ham o'z nuqtayi nazari va tajribasidan kelib chiqib xabar berish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mediasavodxonlik sohasida bir nechta muhim muammolarni yuzaga chiqmoqda. Eng avvalo, mediasavodxonlikni rivojlantirish borasida ilg'or pedagogik yondashuvlar va texnologik vositalarning qo'llanilishi ortib bormoqda, ammo bu jarayonda samaradorlik darajasi hamon turlicha baholanmoqda [Sun, Wang 2023: 60]. Masalan, Sun va Wang tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, interaktiv o'quv dasturlarining qo'llanilishi an'anaviy ta'lim shakllariga nisbatan ko'proq samaradorlik kasb etadi, biroq ushbu dasturlarning turli yosh guruhlariga qanday ta'sir etishi bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar mavjud emas [Anderson, Jamison 2024].

Mediasavodxonlik bo'yicha tadqiqotlarning yana bir muhim jihati — uning turli ijtimoiy guruhlarga moslashtirilishidir. Bu masala bo'yicha Yevropada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar, kattalar va qariyalar uchun mediasavodxonlik bo'yicha yondashuvlar o'zaro keskin farqlanishi kerak. Shu bilan birga, mazkur moslashtirish amaliyoti bo'yicha yagona standartlar mavjud emasligi turli mamlakatlarda mediasavodxonlik darajasining notekis shakllanishiga olib kelmoqda [Anderson, Jamison 2024: 117]. Yana bir muammo shundaki, mediasavodxonlikni baholash uchun mavjud metodologiyalar turlicha natijalar bermoqda. Anderson va Jamison (2024) tadqiqotlari yangi baholash ko'rsatkichlari va metodlarini ishlab chiqdi, ammo bu metodlarning umumiy qabul qilingan standartlarga asoslanmagani baholash natijalarining ishonchliligiga shubha uyg'otmoqda [European Media Literacy Research Group, 2022: 24]. Mediasavodxonlik ta'limi XXI asrda global axborot muammolari va texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq. Media orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarning hajmi va turli xil manipulyativ omillar oshib borar ekan, media savodxonlik ta'limi zarurati tobora dolzarb tus olmoqda. Biroq ushbu ta'limning turli davlatlardagi holati hamon nomutanosibdir. Masalan, Yevropa mamlakatlarida mediasavodxonlik milliy ta'lim tizimlariga integratsiya qilingan bo'lsa, Germaniyada bu jarayon o'rta maktab bosqichida majburiy fan sifatida joriy etilgan [Heindorf, Len: 2022]. Biroq Germaniya

tajribasi boshqa mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri mos tushmasligi sabab har bir mamlakat o'ziga xos yondashuvni ishlab chiqishi lozim.

Birlashgan Qirollikda Ofcom tomonidan ishlab chiqilgan mediasavodxonlik dasturlari mavjud bo'lsa-da [Ofcom], bu dasturlar ta'lim jarayonida barcha yosh toifalariga moslashtirilgan emas. AQShda esa mediasavodxonlik ta'limini rivojlantirish ko'proq hukumat va xususiy sektor tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, lekin bunday qo'llab-quvvatlashning yetarli darajada tizimli emasligi uning ta'sir doirasini cheklaydi. Masalan, The Center for Media Literacy (CML) tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar mavjud bo'lsa-da, ular umumta'lim maktablari uchun majburiy hisoblanmaydi [Center for Media Literacy 2023]. Shuningdek, AQShdagi The National Association for Media Literacy Education (NAMLE) mediasavodxonlikni rivojlantirish bo'yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqqan, ammo ushbu tavsiyalar amaliyotda barcha o'quv dasturlariga tatbiq etilmagan [National Association for Media Literacy Education 2024].

Osiyoda mediasavodxonlik ta'limi, mamlakatlarga qarab farq qiladi. Masalan, Janubiy Koreyada media savodxonligi ta'limi maktab dasturlariga kiritilgan bo'lib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi [Kim, Park 2023]. Koreyada talabalarga media materiallarni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini oshirish uchun maxsus darsliklar va o'quv materiallari ishlab chiqilgan.

Xitoyda media savodxonligi ta'limi davlat siyosati bilan muvofiqlashtirilgan bo'lib, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xavfsizligi va falsafiy yondashuvlar asosida o'qitiladi [Wang, Zhang 2022]. Xitoyda media savodxonlikni oshirish uchun maxsus darsliklar va hukumat tomonidan nazorat qilinadigan ta'lim dasturlari mavjud.

Xalqaro tajribalar mediasavodxonlik ta'limining samarali bo'lishi uchun ko'p jihatlarni ko'rsatadi. Germaniya va Britaniyada media ta'lim dasturlari ta'lim tizimlariga integratsiya qilingan bo'lsa, AQShda hukumat va xususiy sektor tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Osiyo mamlakatlarida esa mediasavodxonlik ta'limi davlat siyosati bilan muvofiqlashtirilgan. Har bir mamlakatning o'ziga xos yondashuvlari, mediasavodxonlikni rivojlantirishda innovatsion metodlarni va dasturlarni qo'llash imkonini beradi.

Xulosa

Mediasavodxonlik — bu dezinformatsiya va soxta ma'lumotlarga qarshi kurashishda insonning asosiy kompetensiyalaridan biri bo'lib, u axborotni tahlil qilish, tanqidiy tushunish, uning ishonchliligini baholash va ommaviy axborot vositalari tomonidan tarqatilgan matnlar va qadriyatlarini sharhlash imkonini beradigan bilim va ko'nikmalar to'plamidir. Mediasavodxonlik yordamida xabarda senzura, noxolis va biryoqlama taqdimot belgilarini yaqqol ko'rish, media matnlar va ularning mualliflarining siyosiy, ijtimoiy, tijoriy va madaniy maqsadlarini aniqlash mumkin.

Xorijiy tajribani hisobga olgan holda, mediasavodxonlikning kelajagi shunchaki axborotni to'g'ri talqin qilish bilan cheklanmasligi

kerak. Buning o'rniga, yangi texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt va raqamli vositalardan foydalangan holda axborotni tezkor tahlil qilish usullarini rivojlantirish lozim. Bundan tashqari, global hamkorlikni mustahkamlash orqali mediasavodxonlikning xalqaro standartlarini ishlab chiqish ham muhim vazifalardan biridir. Shu bilan birga, ta'lim tizimlarida mediasavodxonlikni kengroq qamrab olgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

O'zbekistonda mediasavodxonlik ta'limini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning media kontentni tahlil qilish, yaratish va baholash ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Raqamli platformalar, interaktiv texnologiyalar, ko'p foydalanuvchi platformalari, ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari va o'qituvchilarni tayyorlash orqali mediasavodxonlik ta'limining sifatini oshirish mumkin. Bu jarayon mamlakatning ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va yoshlarni zamonaviy ma'lumotlarga tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega.

References

- Anderson, C., & Jamison, K. (2024). *Educational Research Review*, 15(1), 101–115. (In Eng.)
- Aufderheide, P. (1997). *Media Literacy in the Information Age: Current Perspectives* / Ed. R. Kubey. New Brunswick & London: Transaction Publishers, 504 p. (In Eng.)
- Aufderheide, P., & Firestone, C. (1993). *Media Literacy: A Report of the National Leadership Conference on Media Literacy (Report)*. Queenstown, MD: The Aspen Institute, pp. 1–11. (In Eng.)
- Barlow, J. (2021). *Media Literacy and its Role in Education*. New York: Oxford University Press. (In Eng.)
- Center for Media Literacy. (2023). *Media literacy education programs and resources*. Available at: <https://www.medialit.org> (accessed 10.10.2025). (In Eng.)
- Chicherina, N. V. (2008). *Mediaobrazovaniye v kontekste izmenyayushcheysya sotsialnoy realnosti (Media education in the context of changing social reality)*. Arkhangelsk: Pomorskiy un-t, 175 p. (In Rus.)
- Doe, J. (2022). *Media Literacy in the UK: A Growing Necessity*. London: BBC Publications. (In Eng.)
- Duncan, B. (Ed.) (1989). *Media Literacy Resource Guide (Media savodxonligi bo'yicha qo'llanma)*. Toronto: Ministry of Education of Ontario, Publications Branch, the Queen's Printer, 232 p. (In Eng.)
- European Media Literacy Research Group. (2022). *European Journal of Media Studies*, 8(3), 78–92. (In Eng.)
- Grachev, G. V., & Melnik, I. K. (2003). *Manipulirovaniye lichnost'yu: organizatsiya, sposoby i tekhnologii informatsionno-psikhologicheskogo vozdeystviya (Manipulation of Personality: Organization, Methods, and Technologies of Information-Psychological Influence)*, 3rd ed., Moscow: Eksmo. (In Rus.)
- Heindorf, S., & Lenz, M. (2022). *Journal of Media Education*, 12(1), 33–47. (In Eng.)
- Hobbs, R. (1998). *Journal of Communication*, 48, 16–22. (In Eng.)

- Hobbs, R. (2010). *Digital and Media Literacy: A Plan of Action*. Washington, DC: The Aspen Institute. (In Eng.)
- Johnson, P. (2019). *Fighting Misinformation in Canadian Schools*. Toronto: University of Toronto Press. (In Eng.)
- Karlsen, T. (2019). *Digital and Media Literacy in Estonia*. Tallinn: Estonian Academy of Sciences. (In Eng.)
- Kim, J., & Park, S. (2023). *Asian Education Studies*, 9(4), 50–65. (In Eng.)
- Kubey, R. (Ed.) (1997). *Media Education: Portraits of an Evolving Field*. New Brunswick & London: Transaction Publishers. (In Eng.)
- Lin, T., Li, J., Deng, F., & Lee, L. (2014). *Educational Technology & Society*, 17(4), 165–177. (In Eng.)
- McLuhan, M. (1967). *The Medium is the Message: An Inventory of Effects*. London: Penguin Modern Classics. (In Eng.)
- Mihailova, T. (2020). *Educational Innovations*. (In Eng.)
- Miller, R. (2018). *Media Literacy Initiatives in Australia*. Sydney: University of Sydney Press. (In Eng.)
- Mirziyoyev, Sh. M. (2019). *Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (Steadily continuing our path of national development and raising it to a new level)*. Tashkent: O'zbekiston, 592 p. (In Uzb.)
- National Association for Media Literacy Education. (2024). *Journal of Media Literacy Education*, 15(2), 112–127. (In Eng.)
- Ofcom. (2023). *Media literacy research and evaluation*. Available at: <https://www.ofcom.org.uk> (accessed 10.10.2025). (In Eng.)
- PISA. (2018). *Results from Programme for International Student Assessment*. Paris: OECD. (In Eng.)
- Schneider, L. (2020). *Media Literacy and Critical Thinking in Germany*. Berlin: Springer-Verlag. (In Eng.)
- Smith, A. (2020). *The Impact of Media Literacy on Student Learning*. London: Cambridge University Press. (In Eng.)
- Sun, Y., & Wang, X. (2023). *Journal of Media Education*, 10(2), 45–60. (In Eng.)
- Wang, L., & Zhang, H. (2022). *Journal of East Asian Studies*, 11(3), 85–99. (In Eng.)
- Worsnop, C. M. (1994). *Screening Images: Ideas for Media Education (Media ta'limi uchun g'oyalar)*. Mississauga: Wright Communication, 179 p. (In Eng.)